

ISSN:3060-4567 Modern education and development
EKOLOGIK TOZA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI
YETISHTIRISH

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi

Chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining

Toshkent filiali

dotsenti Ro'zimova X.K, 3-kurs talabalari Tursunqulov H,

Aslonxo'jayev O, Muxammadiev M, Karaboyev T

Anatatsiya: Organik-ekologik-biologik qishloq xo'jaligi so'nggi yillarda muhim ahamiyat kasb etadigan tabiiy zaxiralarning holati, energiya muammosi, aholining ko'payishi, migratsiya, urbanizatsiya muammolari, qishloq xo'jaligidagi muammolar, sog'lom, etarlicha oziq-ovqat ishlab chiqarish muammosi, atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy muvozanat buzilishi kabi muammolarga ko'proq e'tibor qaratmoqda.

Abstract: The state of natural resources, energy problem, population growth, migration, urbanization problems, problems in agriculture, healthy, sufficient food, where organic-ecological-biological agriculture has gained importance in recent years is paying more attention to problems such as production problems, environmental pollution and natural imbalances.

Аннотация: Состояние природных ресурсов, энергетическая проблема, рост населения, миграция, проблемы урбанизации, проблемы в сельском хозяйстве, здоровое, достаточное питание, где в последние годы приобрело значение органическое, эколого-биологическое сельское хозяйство, все большее внимание уделяется таким проблемам, как производство, проблемы, загрязнение окружающей среды и природные дисбалансы.

Kalit sozlar: Organik, genetic, minral og'itlar, hosildorlik, zaxarliy moddalar, Global.

Key words: Organic, genetic, mineral fertilizers, productivity, toxic substances, Global.

Ключевые слова: Органические, генетические, минеральные удобрения, продуктивность, токсичные вещества, Глобальный.

Mutaxassislarga ko‘ra, organik mahsulotlar ishlab chiqarishda avvalo iqlim, tuproq, relef sharoiti hamda suv ta’minoti singari omillar inobatga olinadi. Jahan bozorida ham oziq-ovqat mahsulotlariga qo‘yilgan sifat va xavfsizlik talablari tobora kuchayib, yurtimizda yetishtirilayotgan mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi o‘rnini ustahkamlash uchun qo‘sishimcha choralar ko‘rishni talab qilmoqda. Statistikaga ko‘ra, bugungi kunda dunyoning 170 dan ziyod mamlakatida organik qishloq xo‘jaligi rivojlanmoqda.

Xo‘sh, bugun O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi tizimida qo‘sishimcha mineral o‘g‘itlarsiz, zaharli ximikatlarsiz va boshqa texnogen ta’sirlarsiz yetishtirilgan mahsulotlar necha foizni tashkil etadi? Umuman mamlakatimizda organik mahsulotlarni ekologik toza ekanligini tasdiqlovchi qanday me’yorlar va standartlar ishlab chiqilgan?

Bugun respublikada yetishtirilayotgan tabiiy mahsulotlar 5 foizni tashkil etadi. Albatta, bu katta ko‘rsatkich emas. Mavjud muammoning oldini olish borasida respublikada aholi uchun xavfsiz, sifati yuqori bo‘lgan 14 ming hektar maydonda organik mahsulotlar, jumladan, 8,5 ming hektar paxta, 2 ming hektar g‘alla, 2,2 ming hektar meva-sabzavot va 1,1 ming hektar dorivor (kovul) ekinlari yetishtirilmoqda.

Bir narsaga ahamiyat berish lozim. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga ta’sir etuvchi asosiy omillar mavjud. Masalan, aholi sonining o‘sib borishi, yer, suv va energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortishi, iqlimning keskin o‘zgarishi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga ta’sir etuvchi asosiy omillardir. Ekologiya va suv ta’minoti bilan bog‘liq muammolar ushbu yo‘nalishda yangi vazifalarni hal qilish majburiyatini keltirib chiqaradi.

Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, eksport geografiyasini kengaytirish bo‘yicha belgilangan rejaga muvofiq ishlar tashkil qilinmoqda. Xususan, respublikada “Organic” va “Global G.A.P.” xalqaro standartlari talablariga muvofiq mahsulot ishlab chiqarish, tartibga solish

va muvofiqlashtirish tizimini rivojlantirish belgilab olingan. Sohada ilm, fan va innovatsiyalarni rivojlantirish maqsadida O'simliklar genetik resurslari ilmiytadqiqot instituti tashkil etilgan hamda "Qishloq xo'jaligi ekinlari genetik resurslari Milliy genbanki" faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Organik qishloq xo'jaligi — jahon trendi hisoblanadi. Bunda esa aholini yil davomida sabzavot va poliz mahsulotlari bilan ta'minlashda issiqxonalarining ahamiyati beqiyos. Issiqxonalar rivoji orqali, yilning istalgan faslida tabiiy mahsulotlarni ko'paytirishga erishish mumkin. Mamlakatimizda zamonaviy tipdagi (gidropponika) issiqxona va yangi intensiv mevali bog'lar, tokzorlar tashkil etilmoqda.

Bundan tashqari, 28 ming gektarda intensiv usulda sabzavot yetishtirish yo'lga qo'yilib, hosildorlik sabzavotda gektariga 200-300 sentner va kartoshkada 1015 sentnerga oshishiga erishildi. Mayjud issiqxonalar so'nggi 5 yilda 3 barobarga oshib, 5,2 ming gektarga yetkazilgan. Ularda yetishtirilayotgan tabiiy mahsulotlar hajmi 90 ming tonnadan 300 ming tonnaga ko'paygan. Shuningdek, 72,2 ming hektar maydonda poliz ekinlari ekilgan.

Kelgusida 2023-2030 yillarda oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish 6 milliard dollardan 12 milliard dollarga yetkazilishi, oziq-ovqat sanoati korxonalari soni 22,4 mingdan 30 mingtaga, mahsulot ishlab chiqarish assortimenti hozirgi 1 ming 100 tadan 1 ming 500 taga oshirilishi rejalashtirilgan. Ular tomonidan 7 yilda 5 mingga yaqin investitsiya loyihalari amalga oshiriladi va qayta ishslash quvvatlari tashkil etiladi.

Oziq-ovqat sanoatida ish o'rnlari soni 110 mingtadan 150 mingtaga ko'payadi. Qayta ishslash quvvatlari meva-sabzavotda 3 million tonnadan 3,5 million tonnaga, go'shtda 427 ming tonnadan 650 ming tonnaga, sutda 2,4 million tonnadan 2,9 million tonnaga oshadi. Natijada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishslash hajmi 8 foizdan 25 foizga yetkaziladi. Umumiy eksport hajmida qayta ishlangan mahsulotlar ulushi 31 foiz (494 million dollar)dan 40 foiz (1 milliard dollar)ga o'sadi.

Organik mahsulotlarni yetishtirish va eksport qilish bugunning dolzarb masalasidir. Xususan, davlatimiz rahbari ham O'zbekiston oziq-ovqat xavfsizligini

ta'minlash uchun Ko'rfaz davlatlariga organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish mexanizmlarini tatbiq etishga tayyor ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Shuni alohida qayd etish lozimki, jahon bozorida bugungi kunda an'anaviy usulda yetishtirilgan olmaning narxi o'rta hisobda 1 kg 0,75 AQSH dollari bo'lsa, organik usulda yetishtirilgan olmaning narxi 1 kg 2,9 dollarni tashkil etmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, bozorlarda organik usulda yetishtirilgan meva-sabzavotlar an'anaviy usulga qaraganda o'rtacha 4 barobarga qimmatroq.

"Organik mahsulotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ning xalqaro ekspertlari tomonidan berilgan maslahatlar asosida ishlab chiqildi. Mazkur hujjat organik mahsulotlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, transportda tashish, tamg'alash va realizatsiya qilish, shuningdek muvofiqlikni baholash va avtorizatsiyalashtirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Ekologik toza mahsulotning afzallikkabi katta. Bu kabi mahsulot yetishtiriladigan yerlarda avvalo 3 yil davomida tozalash tadbirleri o'tkazilishi talab etiladi. Shundan so'nggina yer tekshirilib, organik-ekologik toza mahsulot yetishtirish uchun sertifikat beriladi. Mahsulot yetishtirishda turli kimyoviy vositalar, mineral o'g'itlardan foydalanish va genetik modifikatsiyalangan ekin navlarini ekish qat'ianan taqiqlanadi. Bunda asosiy agrotexnik tadbirlar qo'l mehnati evaziga bajariladi. Shunday usulda yetishtirilgan organik yoki ekologik toza mahsulotning tarkibida 95 foizgacha organik modda bo'ladi.

Mamlakatimiz sharoitida ekologik toza mahsulotlar yetishtirish uchun muammolar bor. Lekin, tabiiy sharoitlar ham mavjud. Biz bor sharoitdan unumli foydala olsak, kutilgan yuqori natijalarga albatta erishamiz.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko`rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash Bugungi kunda, organik qishloq xo'jaligi — jahon trendi hisoblanadi. 2019 yilda organik qishloq xo'jaligi bo'yicha xalqaro bozorlardagi savdo aylanmasi 96,7 mlrd yevroni tashkil etib, 71,5 mln hektar maydonda 2,8 mln ishlab chiqaruvchi ushbu faoliyat turi bilan shug'ullangan. Ekspertlarning baholashiga ko'ra, dunyo organik mahsulotlari

bozorida so‘nggi 5 yil davomida yiliga o‘rtacha 15 foizdan o‘sishga erishilib, 2022 yilda savdo aylanmasi 212 mld AQSh dollari (jahon qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi umumiy hajmining 20 foizi)ni tashkil etishi prognoz qilingan. Organik qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari instituti (FiBL) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoning 103 ta mamlakatida organik qishloq xo‘jaligi to‘g‘risida qonun qabul qilingan bo‘lib, 6 ta mamlakatda qonun ishlab chiqilmoqda.

Organik qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari instituti (FiBL) va Organik qishloq xo‘jaligi harakati bo‘yicha Xalqaro Federatsiyasi (IFOAM)ning Jahon organik qishloq xo‘jaligi statistikasi bo‘yicha 2019 yildagi nashrida O‘zbekiston Respublikasi meva yetishtirish bo‘yicha qulay sharoitga ega bo‘lgan dunyodagi 10 ta davlat qatoriga kiritilgan va respublikamiz organik meva ishlab chiqarish uchun qulay yer maydonlariga ega ekanligi qayd etilgan. Respublikamizdagи «Sunny Fruit Production» MChJ tomonidan 2017 — 2019 yillarda jami 1848 tonna organik mayiz yetishtirilib, Rossiya Federatsiyasi, Fransiya, Germaniya, Niderlandiya, Italiya va Gretsya mamlakatlariga mayizning an‘anaviy turiga nisbatan 14,7 foizga yuqori narxlarda eksport qilingan va 4,1 barobar ko‘proq sof foyda olingan. Shuningdek, 2019 yilda AQSh bozorlarida bir tonna organik paxta xom ashysi an‘anaviy turiga nisbatan 155 dollardan 225 dollargacha yuqori narxlarda baholangan.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tarixida ushbu amaliyot o‘z o‘rniga ega, ya’ni asrlar davomida shakllangan an‘anaviy sabzavotchilik va bog‘dorchilik madaniyati mahalliy o‘g‘itlardan foydalanishni ko‘zda tutadigan biologik dehqonchilik tamoyillariga asoslangan. Bu genlarni modifikatsiya qilish texnologiyalarini qo‘llamasdan, ozuqaviy qiymati yuqori, o‘ziga xos ta’m va iste’mol xususiyatlarga ega bo‘lgan organik (ekologik toza) meva va sabzavotlarni yetishtirish imkonini beradi. Shuningdek, ayni vaqtida respublikamizda organik qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun quyidagi qulay sharoitlar mavjud:

- zaharli moddalar bilan zararlanmagan ekin maydonlari;
- tomorqa xo‘jaliklarida yetishtirilgan organik mahsulotlarni eksport qilish natijasida aholi daromadini oshirish imkoniyati;
- organik ishlab chiqarish bo‘yicha agrokaster, logistika va kooperatsiya tizimlarini rivojlantirish natijasida

aholi bandligini oshirish imkoniyati; ➤ laboratoriylar, nazorat va sertifikatlashtirish tizimlarini takomillashtirish hisobiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini tahlil qilish imkoniyati; ➤ genetik modifikasiyalangan organizmlar (GMO)dan holi mintaqalar. Agrosanoatni modernizatsiyalash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi tobora ortib boryapti. Aholini yil davomida meva-sabzavotlar bilan uzliksiz ta’minalash maqsadida zamonaviy andozalar asosida issiqxonalar bunyod etish, bog‘lar, tokzorlar maydonini kengaytirish yetishtirilgan hosilni kuz-qish davrida sifatli saqlash imkonini beradigan omborxonalar barpo etish say-harakatlari ham alohida e’tibordaki, bu oziq-ovqat maxsulotlari ta’mintonining barqarorligi, boshqacha aytganda, aholi dasturxoni farovonligiga xizmat qilmoqda. Jumladan, mamlakatimiz har yili 16-20 million tonnaga yaqin meva-sabzavot yetishtirilmoqda. Aholi jon boshiga qariyb 300 kg sabzavot, 75 kg kartoshka va 44 kg uzum to‘g‘ri keladi. Bu xalqaro normalarga ko‘ra maqbul deb hisoblanadigan iste’mol me’yordan uch barobar ko‘pdir. Qulay sharoit va imkoniyatlar mavjudligiga qaramasdan, respublikamizda organik qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga yetarli e’tibor berilmayotganligi nafaqat atrof-muhitga, insonlar salomatligiga, yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishga, balki hududlarning eksport salohiyatini oshirish va geografiyasini kengaytirishga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Global G.A.P. standarti - yetishtirilgan mahsulotlar xavfsizligini kafolatlovchi tizim hisoblanadi. Global G.A.P standartining boshqa standartlardan asosiy farqi shundaki, ham yetishtirilgan mahsulotlarning xavfsizligi, ham ozuqa, urug‘lik va tayyor mahsulotgacha bo’lgan butun ishlab chiqarish siklining xavfsizligi bilan baholanadi. Global G.A.P. - bu birlamchi mahsulot uchun yagona integratsiyalashgan standart bo’lib, uning alohida modullarini turli xil tovarlar guruhiba, o’simlik mahsulotlarini ishlab chiqarishdan hayvonlarni yetishtirishga nisbatan qo’llash imkoniyati mayjud. Global G.A.P. sertifikatini olganingizdan so’ng, barcha mahsulotlaringiz yuqori sifatli va foydalanish uchun to’liq xavfsiz ekanligini mahsulotingiz iste’molchisiga (ishlab chiqaruvchiga, savdo tarmog’iga) ko’rsatishingiz

mumkin. Hozirgi kunda yurtimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi 260 ta korxonada Global G.A.P. hamda Organic standartlari asosida sifat tizimi joriy etilgan va ular xalqaro darajada sertifikatlashtirilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining yuqori sifati hamda xavfsizligini oshirish, atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish; tuproq unumdorligini oshirish va degradatsiyasining oldini olish, ekotizimning biologik xilma-xilligini, ekologik barqarorlikni saqlab qolish, «daladan dasturxongacha» texnologik sxemasi bo'yicha sertifikatlashtirish va nazorat tizimlarini kuchaytirish; ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish va malakali mutaxassislar tayyorlash ishlarini jadallashtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xakimov R.A., Abbosov A.M., Azimov B.J., Ganiyev F.K., Berejnova V.V., Rasulov A.I., Xoldorov M. Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarini yetishtirish bo'yicha tavsiyalar. - Toshkent: 2014, b-13. 7.
2. Rasulov F.F. Takroriy muddatda shirin qalampir navlarini tanlash va yetishtirish texnologiyasining elementlarini takomillashtirish. Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishi. – Toshkent 2017. b-11-13
3. Sagdullayev A.U., Raxmatov A.A., Tashpulatov U.B. va Sodiqova S.Z. Achchiq qalampirni kasallik va zararkunandalardan himoya qilish bo'yicha tavsiyanoma. – Toshkent: 2018. b-24. 9. Xo'jayev Sh.T. O'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish, hamda agrotoksikologiya asoslari.-Toshkent: "Navro'z" – 2014 b-26-30.
4. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reestri. Toshkent- 2020. b-51-52.
5. Ostonaqulov T.E., Zuyev V.I., Qodirxo'jaev O.Q. Kitob. Sabzavotchilik, 2009. b-273-275. 12. Ostanaqulov T., Zuev V.I., Qodirxo'jayev O., "Sabzavotchilik" Toshkent 2008 y.
6. Ostanaqulov T., "Sabzavot ekinlarini yetishtirish biologiyasi va texnologiyasi" T. 1997 y.

7. Qodirxo‘jaev O., Muxamedov M. “Sabzavot yetishtirish texnologiyasi” Toshkent-2000.
8. www.agro.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi rasmiy sayti6. Отажонова, м. (2017). художественная эволюция мифологических сюжетов в узбекских прозаических произведениях. Научное обозрение Саяно-Алтая, (2), 85-88.